

BADIY ASARLARDA AYOL OBRAZINI TASVIRLASH JARAYONIDA IBORALARDAN FOYDALANISH

Boltayeva Barnoxon Botir qizi

Urganch RANCH texnologiya universiteti

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası o‘qituvchisi

barnoxonboltayeva8@gmail.com

Ko‘zibayeva Nozima Sherzod qizi

Filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15654082>

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy asarlarda ayol obrazini tasvirlash jarayonida frazeologik iboralardan foydalanishni tahlil qiladi. Maqolada frazeologizmlarning til va adabiyotdagi ahamiyati, ularning xalqning ma'naviyati va madaniyatini aks ettirishdagi roli ko'rsatiladi. Ayol psixologiyasini o'rganish, adabiy jarayon va ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda, ayol obrazining murakkabligi va ko'p qirraliligi ta'kidlanadi. O'zbek va ingliz adabiyotidagi ayol obrazlari misollar bilan yoritilib, yozuvchilarning frazeologizmlardan qanday qilib ijodiy maqsadlarda foydalanishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: obraz, frazeologizm, badiiy adabiyot, psixologiya, tasviriy vositalar, adabiyotshunoslik, ijodiy jarayon, zamonaviy adabiyot, feminizm.

Аннотация: Данная статья анализирует использование фразеологических выражений в процессе описания женского образа в художественных произведениях. В статье рассматривается важность фразеологизмов в языке и литературе, их роль в отражении духовности и культуры народа. Изучение женской психологии подчеркивает сложность и многогранность женского образа в контексте литературного процесса и социальной среды. Примеры женских образов из узбекской и английской литературы иллюстрируют, как писатели используют фразеологизмы в творческих целях.

Ключевые слова: образ, фразеологизм, художественная литература, психология, средства описания, литературоведение, творческий процесс, современная литература, феминизм.

Annotation: This article analyzes the use of phraseological expressions in the process of depicting the female image in literary works. It discusses the importance of phraseologisms in language and literature, as well as their role in reflecting the spirituality and culture of the people. The study of female psychology emphasizes the complexity and multifaceted nature of the female image in the context of the literary process and social environment. Examples of female images from Uzbek and English literature illustrate how writers utilize phraseologisms for creative purposes.

Keywords: image, phraseologism, literary art, psychology, descriptive means, literary studies, creative process, contemporary literature, feminism.

KIRISH. Kishilar til vositasida o'zaro aloqaga kirishar ekan, til birliklari turli mazmundagi fikrlarni nutq qaratilgan shaxsga yetkazish, uni harakatga yo'naltirish, ta'sir etish vazifalarini bajaradi. Til tizimida muhim o'rin tutuvchi birliklardan biri frazeologizmlar hisoblanadi. Chunki, frazeologik birliklarda har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari, xalqning donoligi, milliy kolorit o'z aksini topgan bo'ladi, ya'ni frazeologizmlar xalqlarning urf-odatlarini, an'analarini, siyosat, din kabi barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu bilan birga ibora yordamida o'sha xalq haqida ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Frazeologizmlar so'zlardan farqli holda nobyektiv

reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi va insonning jismoniy hamda ruhiy tabiatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shuningdek, insonning ijtimoiy hayotdagi o'rni, his-tuyg'ulari, o'y-fikrlari, faoliyatini baholash va munosabat ifodalashda frazeologizmlar muhim vosita hisoblanadi. Turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar Sh.Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyev, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Albatta, bu tadqiqotlar frazeologiya sohasida erishilgan muvaffaqiyatlardir.[1:37]

TADQIQOT MATERIALLARI VA METADOLOGIYASI. Ayol psixologiyasini tahliliy o'rganish insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim. Adabiy jarayon doim ijtimoi muhit, adabiy-ma'naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ongu tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar, asosan, adabiyot va san'atda o'z aksini topadi. Bunda adabiyotshunoslik fani ham o'z obyektiga yangi nigoh bilan qarash, ayol ruhiyatiga oid muammolarni chuqurroq anglash yo'lidan bordi. Badiiy adabiyotda ayolning ruhiy dramalarini to'laqonli aks ettirishda jahon nasrining ilg'or ijodiy tendensiyalariga xos jihatlar namoyon bo'lmoqda. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, uning sohir tuyg'ulari, murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan xilqat ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog'liq. [2:4]

Badiiy adabiyotda ayol obrazining tabiati, ruhiyati go'zalligi xarakteri va hattoki uning salbiy hususiyatlarini ifodalash uchun ham turli tasviriy badiiy vositalar qo'llaniladi. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib "badiiy tasvir vositalari" deb aytiladi. Badiiy tasvir vositalari ijodkoning muayyan badiiy estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan normadan og'ishi natijasida yuzaga keladi, ular tasvirlarning jonli va to'laqonli bo'lishiga, ifodalilikning kuchayishiga xizmat qiladi. Badiiy san'at asarlarida ifodalanilayotgan xilma-xil g'oyalar va hayotiy yoki to'qima voqea hodisalarni hayotiyroq, ta'sirchanliroq ifodalanishini, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishi, misralar va bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligini, jozibadorligini taminlovchi vositalardir.[3]

Malumki, ingliz va o'zbek adabiyotida ayol obrazini yaratishga juda ko'plab adabiyot vakillari qo'l urishgan. Bunda har bir yozuvchi o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, ma'lum bir ayol obrazini o'z asarlarida gavdalantirishga harakat qilishgan.[4] Bunda, albatta, tasvirlash jarayonida nafaqat yozuvchining pozitsiyasi, balki millat, davlat, til va madaniyat ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Misol uchun Sharqda aynan o'zbek adabiyotida ayol — ona, ayol — rafiqa timsollari orqali tasvirlangan asarlar ko'p uchraydi. Bu bizning jamiyatimizda ayolning asosiy vazifalari oila va oilada farzandlar parvarishi bilan bog'liqligi holatiga ishora qiladi. Lekin zamonaviy adabiyotlarni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, ayolning vazifasi nafaqat oila, uy yumushlari bilan chegaralanib qolish, balki ayol jamiyatning bir bo'lagi sifatida ham tasvirlanish holatlari ham kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bugungi kunda ayolning jamiyat bilan aloqasi kuchayib bormoqda va bu badiiy asarlarda o'z aksini topmoqda.[5] Zamonaviy adabiyotda anashunday serqirra, murakkab va o'ziga yarasha o'rni bo'lgan ayol obrazini tasvirlash uchun yozuvchilar frazeologizmlardan ham foydalanishlariga to'g'ri keladi va bu o'quvchiga obrazni osonroq va tez anglab olishiga imkon beradi.

Asrlar davomida shakllangan frazeologizmlar ogʻzaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda publitsistikada oʻtkir, taʼsirchan tasviriy vosita sifatida keng qoʻllanadi. Yozuvchilar oʻz asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalanish bilan birga mavjud frazeologizmlarni asar ruhiga moslagan holda qisman oʻzgartiradilar, shu yoʻl bilan yangi iboralar yaratadilar.[6] Buning sababi shundaki asarlardagi obrazlar talqini zamon bilan hamnafas boʻlgani kabi uni tasvirlashda ishlatiladigan iboralar ham shunga mos boʻlishi kerakligidadir. Ushbu maqolada aynan ayol obrazini tasvirlashda ishlatiladigan frazeologik iboralarni tahlil qilamiz. Oʻzbek adabiyotida ayol obrazini frazeologik ibora yordamida tasvirlash ancha vaqtlardan buyon qoʻllaniladigan badiiy jihat sanaladi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “Oʻtgan kunlar” asarida yozuvchi Oʻzbekoyimni tasvirlash jarayonida uning tabiatiga hos injiqlik va oqsuyaklikni oʻquvchiga yetkazib berish uchun “Oʻzbek oyim uncha-muncha toʻy azalarga” *“kovushim koʻchada qolgan emas”*, deb bormas edi deb yozadi. Ushbu ibora orqali oʻquvchida obrazga nisbatan neytral munosabat paydo boʻladi. Agar Abdulla Qodiriy u hammani oʻziga teng kormas edi jumlasini ishlatganida u salbiy qahramonga aylangan boʻlardi ammo yozuvchi oʻzbek onasini salbiy qahramon sifatida tasvirlamagan bolardi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ingliz adabiyotida ham ayol obrazini tasvirlash nafaqat feminizm yoʻnalishida ijod qiladigan yozuvchilar balki boshqa yoʻnalish ijodkorlariga ham qiziq hisoblanadi. Mashhur britaniyalik yozuvchi Kate Atkinson ijodiga mansub boʻlgan asarlarda ham ayol obrazi turlicha badiiy tasviriy vositalar yordamida tasvirlanganining guvohi boʻlishimiz mumkin. Uning dunyoning ohiri emas deb nomlangan hikoyalar toʻplamida 12 ta qisqa hikoya boʻlib ularning barchasida ayol obraziga guvoh boʻlamiz. Toʻplamdan oʻrin olgan birinchi hikoya “Charlene and Trudi go shopping” hisoblanadi. Ushbu hikoyada Charlene va Trudi ismli qahramonlar birgalikda harid qilish uchun chiqishadi. Hikoyada ayollar real hayotdan uzoqda boʻlgan va hali voyaga yetmagan yosh qizlar kabi tasvirlanadi. Ular doʻkon aylanar ekan duch kelgan narsaning turlarini hayollarida yaratib noodatiy tarzda yaratib borishadi. Aslida mavjud boʻlmagan va insonlar sotib olishi va egalik qilishi mumkin boʻlmagan hayvonlar, masalan, kiyik va odamdek kattalikdagi mushukni orzu qilishadi. Hikoyada Trudi ismli qahramonning hayotga oʻta yengil qarashi “Biron narsa nomini 5 marta aytsam amalga oshadi” deb ishonishidan ham maʼlum.

Kate Atkinsonning “Life After Life” - “Hayotdan keyin hayot” asaridagi markaziy qahramon Ursula bir necha marta tugʻilib, oʻlishi va har safar turli tanlovlar qilish orqali hayotini qayta yashashi aks ettiriladi. Asar, 20-asrning birinchi yarmida, Ursula ning hayoti va oʻlimi, shuningdek, taqdir va tanlov mavzularini oʻrganadi. U har safar oʻz hayotida muhim voqealarni boshdan kechiradi va bu jarayonda oʻzining va atrofida gilarining hayotini oʻzgartirishga harakat qiladi

Ursula Todd markaziy qahramon boʻlib, “What if we had a chance to do it again and again, until we finally did get it right?” iborasi uning tilidan beriladi. Bu uning har safar turli tanlovlar qilishi bilan bogʻliq boʻlgan noyob qobiliyatini aks ettiradi. Uning tajribalari taqdir, tanlov va mavjudlikning aylanishi kabi mavzularni yoritadi, chunki u hayot va oʻlimning qiyinchiliklarini takroran boshdan kechiradi.[7]

Shuningdek ingliz adabiyotida ayol obrazini tasvirlash uchun quyidagi misollardan foydalanilganligining guvohi boʻlishimiz mumkin.

“She wears her heart on her sleeve”- ushbu ibora o‘z his tuyg‘ularini ochiq va erkin namoyish qiladigan ayollarga nisbatan qo‘llanilib , u ilk bora Vilyam Shekspirning “Otello” asarida qo‘llanilgan.[8]

“A tough cookie”- ushbu ibora yengilmas va qatiyatli ayollarni tasvirlashda qo‘llanilishi mumkin.[9] Quyidagi iboralar ham aynan badiiy asarlardagi ayol obrazini tasvirlashda qo‘llaniladi:

“Hell hath no fury like a woman scorned”- ushbu ibora nohaqlikka uchragan ayoldan ko‘ra qo‘rqinchliroq narsa yoq degan ma‘noni anglatadi.

“A woman’s work is never done”- bu ibora ayollarning doimo talaygina uy yumushlari bo‘lishini, ular doimo ish bilan band ekanligini ifodalaydi.

“A woman of few words”- bu ibora kamgap ayollarni tasvirlash uchun qo‘llaniladi.

“Queen bee”-biron bir guruh yoki oilada asosiy mavqega ega ayollarni tasvirlash uchun qo‘llaniladi.

“Ice queen”- chiroyli biroq, sovuqqon va emotsiyasiz ayol, “ A woman of the world”- malakali,bilimli,va dunyoqarashi keng ayollarni tasvirlash uchun ishlatiladi.[10]

XULOSA. Xulosa sifatida shuni ayta olamizki badiiy asarlarda iboralardan o‘rinli foydalanish yozuvchi ijodiy mahoratini ko‘rsatibgina qolmasdan, balki tilimizning naqaadr boy va jozibador ekanligini ham ifodalaydi. Asardagi obrazlarning to‘laonli ochib berilishi bilan bir qatorda obraz tasirchanligini oshirishga zamin yaratadi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари, Самарқанд СамДУ нашри, 2002. - 37 б.
2. Y.Eshmatova. Istiqloq davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. PhD,. Dissertatsiya. B – 4.
3. Iroda Boltayeva Baxodir qizi.Badiiy tasvir vositalari.Modern scientific research: Topical issues,achievements and innovations.
4. Шоре Э. Феминистское литературоведение// Литературоведение на пороге XXI века. —М., 1998. — С. 96–102.
5. Umarova F. B. Ingliz va o‘zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri.// O‘zbekistonda xorijiy tillar, 2022. — № 3 (44). — B.155-166.
6. Z.Nizomova.B.Yusupova.Badiiy matnda frazeologizmlar baho ifodalash vositasi sifatida.
7. <https://www.goodreads.com/book/show/1029824>
8. <https://www.merriam-webster.com>
9. <https://dictionary.cambridge.org>
10. <https://www.collinsdictionary.com>